

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 40 909,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqoslaganda 4,4 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022-yil narxlariga nisbatan 114,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,8 % ga yetdi.

## 2023-yilda Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022-yil	2023-yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>34 385,3</b>	<b>40 909,8</b>	<b>104,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	33 491,1	39 941,2	104,3
mahsulotlarga sof soliqlar	894,2	968,6	107,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>33 491,1</b>	<b>39 941,2</b>	<b>104,3</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>15 934,1</b>	<b>19 448,5</b>	<b>103,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>5 143,4</b>	<b>6 058,2</b>	<b>106,3</b>
sanoat	2 363,3	2 921,9	105,6
qurilish	2 780,1	3 136,3	106,9
<b>xizmatlar</b>	<b>12 413,6</b>	<b>14 434,5</b>	<b>104,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 881,3	3 428,0	107,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 542,1	1 900,4	115,1
boshqa xizmat tarmoqlari	7 990,2	9 106,1	101,2



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 395,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1,9 % ga yuqoridir.

## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022-yil	2023-yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,4	97,6
mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	2,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>47,6</b>	<b>48,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>15,4</b>	<b>15,2</b>
sanoat	7,1	7,3
qurilish	8,3	7,9
<b>xizmatlar</b>	<b>37,0</b>	<b>36,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,6	8,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	4,8
boshqa xizmat tarmoqlari	23,8	22,7

2023-yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 48,7 % ni, sanoat tarmog‘i 7,3 % ni, qurilish 7,9 % ni va xizmatlar sohasi 36,1 % ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022-yil

2,6 %



47,6 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

7,1 %

Sanoat

8,3 %

Qurilish

37,0 %

Xizmatlar

2023-yil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

48,7 %

Sanoat

7,3 %

Qurilish

7,9 %

Xizmatlar

36,1 %



2,4 %


● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2022-yilda – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,4 f.p. (2022-yilda – 0,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2022-yilda – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,6 f.p. (2022-yilda – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022-yilda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

## 2023-yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2023-yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 48,7 %), sanoatda – 105,6 % (7,3 %), qurilishda – 106,9 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 104,3 % ni (36,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,2 % (8,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,1 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,2 % dan (22,7 %) iborat bo'ldi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

2022-y.

2023-y.



3,9 %

YAHM

4,4 %



2,2 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

3,7 %



4,2 %

Sanoat

5,6 %



1,6 %

Qurilish

6,9 %




6,6 %

Xizmatlar

4,3 %

2023-yilda YAHM deflyatori indeksi 2022-yildagi narxlarga nisbatan 114,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 117,7 % va sanoatda – 117,1 % qayd etildi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)





2023-yilda kichik tadbirkorlik 30 303,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022-yilda – 25 471,6 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 75,9 % ni (2022-yilda – 76,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

## Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2022-yil

25 471,6

76,1 %

2023-yil

30 303,7

75,9 %

